"TASDIQLAYMAN"
"O'zmilliybank" AJ Toshkent viloyati
Bosh boshqarma boshlig'i

_____ R.R.Kunarov

"__" yanvar 2026 yil

O'ZMILLIYBANK AJ TOShKENT VILOYATI BOSh BOShQARMASI

1 -son YIG'ILISh BAYoNNOMASI

2026 yil 09 yanvar Nurafshon shahri.

Yig'ilish raisi: M.K.Saipov – "O'zmilliybank" AJ Toshkent viloyat Bosh boshqarma boshlig'ining o'rinbosari.

Qatnashdilar: Toshkent viloyati Bosh boshqarma boshlig'i o'rinbosarlari, Nurafshon amaliyot BXM xodimlari - **31 nafar**.

Kun tartibi:

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan davlat siyosati va so'nggi yangiliklarni xodimlarga yetkazish.
2. Bankda xavfsizlikni ta'minlash, tartib intizom boshqa masalalar bo'yicha xodimlarga yetkazish.

Yig'ilishni Toshkent viloyati Bosh boshqarma boshlig'i o'rinbosari M.K.Saipov ochib, yig'ilish qatnashchilariga kun tartibidagi masalalar bilan tanishtirdi.

O'z so'zida "O'zmilliybank" AJ va uning tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar dolzarbligi xaqida aytib, xozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida bu kabi illatga qarshi kurash va uni oldini olishga qaratilgan kompleks tadbirlar olib borilayotganligi, Prezidentimizning Oliy Majlisga murojaatida korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab berildi bu davlat ichki siyosatining uzviy bir bo'lagi ekanligini ta'kidlab o'tdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan maqsadlarni samarali amalga oshirish uchun asosiy e'tiborni, bank Rahbariyati tomonidan faoliyatimizda mavjud xato-kamchiliklarni bartaraf etish yo'lida olib borilayotgan say'i-harakatlar zamirida xodimlarning siyosiy ongini yuksaltirish, huquqiy madaniyatini oshirish hamda korrupsiyaviy harakatlarga qarshi immunitetni shakllantirishga qaratish turadi.

Toshkent viloyat Bosh boshqarma va uning tarkibiy tuzilmalarida xuquqbuzarliklarini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ijobiy baholagan holda, jamaoda ichki buyruq va nizomlarni buzish holatlarini oldini olishga qaratilgan, xodimlarning bu boradagi bilim va saviya darajasini yanada ko'tarish yo'nalishidagi amaliy xarakatlarni uzuluksiz davom ettirishga erishish tavsiya etildi.

Shu borada tarkibiy tuzilmalar rahbarlarining roli kattaligiga e'tibor qaratildi. BXM va BXO bo'lim boshliqlari jamaoda vujudga kelishi mumkin bo'lgan xar qanday xuquqbuzarliklarni aniqlash va ularni proqilaktika qilishga qaratilgan takliflarni o'z vaqtida Bosh boshqarma boshlig'iga xabar berib turishlari talab qilindi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar hamda hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar keltirilgan moddalari bo'yicha va korrupsiyaviy holatlar oqibatlari bo'yicha huquqiy tushunchalar berib o'tdi.

Bank qonunlarida xodimlarga belgilab berilgan talablari ya'ni, mijozlar bilan muloqotda bo'lganda xushmuomalalik bilan gaplashish, fuqarolarga qo'pollik qilmasdan ularning bank

sohasidagi og'irini yengil qilish, me'yoriy hujjatlar va boshqa qonunchilik hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik yuzaga kelishi, bank mijozlari bilan valyuta amaliyotlari, kredit ajratilishi, kredit ta'minotini rasmiylashtirish va boshqa xizmatlar ko'rsatishda vakolat doirasidan chetga chiqmaslik, xizmat vazifasini suiste'mol qilmaslik, bank xizmatlari ko'rsatishda ta'magirlik, pora olish va berishda ishtirok etmaslik, qonunbuzilish holatlari oldini olish, bank siri talablarini buzmaslik, ishda ma'yoriy hujjatlar talablariga qat'iy rioya etish talab qilindi.

Seminar davomida ijro intizomi yuzasidan belgilangan qonunlar bilan tanishtirib, xujjatlarning ijrosi o'z vaqtida olib borilishi va boshqa talablarini yotkazdi.

So'z yakunida Bosh boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari M.Saipov Toshkent viloyati Bosh Boshqarmasi o'z faoliyatida halol, vijdonan va ochiq biznes yuritishning yuqori me'yorlariga amal qilishimiz, korrupsiyani har qanday shakl va ko'rinishlarda rad etish prinsipiga rioya qilishimiz va jamiyatda korrupsiyaga qarshi madaniyat darajasini oshirishga hissa qo'shishni o'z bo'rchimiz deb bilshimiz kerakligi to'g'risida yetkazdi.

Yig'ilish yakuniga ko'ra quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Xavfsizlik, rejim va axborotni himoyalash bo'limi boshlig'i A.Ashurov - Bank xodimlar o'rtasida korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga murosasizlikni shakllantirish choralari ko'rilsin.
2. Mijozlar bilan munosabatlarda korrupsiyaviy harakatlarning kelib chiqishini oldini olish, hamda har bir bunday holatlar bo'yicha filialning korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens-nazorat bo'yicha bosh mutaxassisiga axborot berish ta'minlansin.
3. Bo'lim boshliqlari va sho'ba mudirlari ushbu yo'nalishda qo'l ostidagi xodimlari uchun shaxsiy o'rnak bo'lishlari shartligi doimo uqtirilsin.
4. Ushbu seminar-yig'ilish bayoni bilan bankning barcha xodimlari shaxsiy imzosini qo'ygan holda tanishtirilsin.

Yig'ilish kotibi **D.Sagdullaeva**

Nurafshon BXM da o'tkazilgan ____ sonli majlis bayoniga ilova

№	Tanishtirildi	Imzo
1	О.А.Акбаров	
2	Б.Пошнулатов	
3	К.Садикова	
4	Erkinov Sardor	
5	Сайзарова Зилола	
6	Убайдулла Шамшид	
7	Гулназаров Охунжон	
8	Локанов Зухриддин Мурат ўғли	
9	Жураев Бобур Собиржон ўғли	
10	Muxtorov Muradil Mo'minjon o'gl.	
11	Bustamizayev Samandar Miqdob o'g'li	
12	А.А.Даврянов	
13	Н.А Абдиллаев	
14	С.А. Нишонбоев	
15	Насимов Э.В.	
16	Ахторов Ш.Ш.	
17	Аллаёрулов М.Б	
18	Каримова Ш.	
19	Мўминов Ш.	
20	Самиева Н	
21	Шабиева М.	
22	Устаниходжаев	
23	Гафурова Н	
24	Абидова Д.Р	
25	Беглова С.В	
26	Мирзаева Д.У	
27	Исмоилов Р.Ф	
28	Алимова М.	
29	Ашурмакова Б	
30	Нуриева М.	
31	Варрова Н.С	
32		